



LOYIHALARGA INNOVATSIYALARNI JALB ETISH JARAYONLARI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasida mudiri
Xurramova Bibixonim Dilshod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi
yo'nalishi 1-kurs magistranti, bibixonimxurramova@gmail.com,
orcid: 0009-0000-0591-7668
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15392920>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil
Ma'qullandi: 10-May 2025 yil
Nashr qilindi: 13-May 2025 yil

KEYWORDS

Innovatsiya, rahbariyat,
kommunikatsiya,
moslashuvchanlik, texnologiya

ABSTRACT

Ushbu maqola loyihalarga innovatsiyalarni joriy etish jarayonining asosiy bosqichlari va muhim jihatlari o'rganadi. Shuningdek, muvaffaqiyatli innovatsiya uchun zarur bo'lgan omillar, jumladan, rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi, ochiq kommunikatsiya, moslashuvchanlik va mijozlarga yo'naltirilganlik kabi masalalar ham ko'rib chiqiladi. Maqolada loyihalarga innovatsiyalarni samarali joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish va loyiha qiymatini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Bugungi globallashuv sharoitida texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, bozorlar o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda tashkilotlar o'z faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshligini saqlab qolish va o'sishga erishishlari zarur. Loyihalar tashkilotning strategik maqsadlariga erishish vositasi sifatida innovatsiyalarni joriy etish uchun qulay muhit yaratadi. Loyihalarga innovatsiyalarni joriy etish nafaqat yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratishga, balki mavjud jarayonlarni takomillashtirishga, samaradorlikni oshirishga va yangi bozor imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi. Shunday ekan, loyihalarga innovatsiyalarni joriy etish jarayonini tushunish va samarali boshqarish tashkilotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola loyihalarga innovatsiyalarni joriy etish jarayonining asosiy bosqichlari, muvaffaqiyat omillari va ushbu sohada dolzarb masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga ko'pincha odamlarning bevosita salbiy munosabati va pozitsiyasi to'sqinlik qiladi. O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo'yilgan hujjatlarda o'z aksini topgan. Innovatsion faoliyat to'g'risida 2020 yil 27 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida"gi prezident farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son Farmoni, «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish

to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PQ-4653-son, «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4862-son qarorlari, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida " 2021 yil 17 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarori kabi myoriy hujjatlar shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlarni qabul qilishdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo'lgan normativhuquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirishdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Innovatsiya kabi hodisani o'rganish jarayonida ikki olim, ya'ni N.Kondratiev va avstriyalik J.A.Shumpeterning nomlarini unutmaslik kerak. Aynan Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" tadqiqotida innovatsiya tushunchasiga birinchi bo'lib ta'rif bergan. U innovatsiyani tijorat muammolarini hal qilishga qaratilgan mavjud ishlab

chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy birikmasi sifatida talqin qildi. Shumpeter bevosita innovatsiyalarda iqtisodiy tizimlarning rivojlanish manbasini payqadi. Chunki o'ziga xos kontent innovatsiyasi-bu o'zgarishlar, ular beshta tipik o'zgarishlarga e'tibor berib, ta'kidlagan:

1. Yangi texnologiyalar, yangi texnologik jarayonlar yoki yangi ishlab chiqarish bozorlarini ta'minlash;
2. Yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni joriy etish;
3. Yangi xom ashyolardan foydalanish;
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta'minotidagi o'zgarishlar;
5. Yangi bozorlarning paydo bo'lishi.

Bundan tashqari, u innovatsiya tushunchasidan foydalanib, uni o'zgarishlar sifatida izohladi, uning maqsadi iste'mol tovarlarining yangi turlarini, yangi ishlab chiqarishni va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidagi transport vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishdi.

Ko'plab mualliflar innovatsiyani yangi g'oyalarni yaratish, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayoni sifatida ta'riflaydi (Schumpeter, 1934; Rogers, 2003). Innovatsiyalar, shuningdek, inkremental (mavjud mahsulot yoki jarayonlarni takomillashtirish) va radikal (butunlay yangi mahsulot yoki jarayonlarni yaratish) turlarga bo'linadi (Tushman & Anderson, 1986).

Metodologik va natijalar qismi

Ushbu tadqiqot loyihalarga innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini chuqur o'rganishni maqsad qilgan bo'lib, aralash usullar tadqiqot dizaynidan foydalanadi. Aralash usullar

tadqiqoti sifat va miqdoriy ma'lumotlarni birgalikda qo'llash orqali tadqiqot savollariga to'liqroq javob berish imkonini beradi. Tadqiqot quyidagi ikki bosqichdan iborat: Sifat hamda miqdoriy tadqiqot bosqichlari va ularni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

1. Sifatli tadqiqot (1-bosqich):

Maqsad: Loyihalarga innovatsiyalarni joriy etishning asosiy bosqichlari, muvaffaqiyat omillari va to'siqlari haqida batafsil tushunchaga ega bo'lish.

Tadqiqot ishtirokchilari: Loyiha menejerlari, innovatsiya bo'yicha mutaxassislar, yuqori lavozimli rahbarlar.

Ma'lumot to'plash usullari quyidagi usullar orqali mazmunini yoritib bersak buladi. Yarim strukturaviy intervyular: Tadqiqot savollariga moslashuvchan tarzda javob olish imkonini beradi. Intervyu savollari quyidagi mavzularni qamrab oladi. Innovatsiya jarayonining bosqichlari (g'oya yaratish, baholash, prototiplash, joriy etish, monitoring). Tashkilotdagi innovatsion muhit (madaniyat, qo'llab-quvvatlash, resurslar) Innovatsiyani amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. Innovatsion loyihalarni amalga oshirgan tashkilotlar o'rganiladi. Loyiha hujjatlari, hisobotlar, taqdimotlar va boshqa materiallar tahlil qilinadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish:

Tematik tahlil: Intervyu transkriptlari va holat tadqiqotlari materiallari tematik tahlil yordamida kodlanadi. Mavzular aniqlanadi va tasniflanadi.

Ma'lumotlarni triangulyatsiya qilish: Sifatli ma'lumotlar ishonchligini oshirish uchun intervyular va holat tadqiqotlari natijalari solishtiriladi.

2. Miqdoriy tadqiqot (2-bosqich):

Maqsad: Sifatli tadqiqot natijalarini tasdiqlash va loyihalarga innovatsiyalarni joriy etishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Tadqiqot ishtirokchilari: Loyiha menejerlari, jamoa a'zolari, manfaatdor tomonlar.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot loyihalarga innovatsiyalarni joriy etish jarayonining mohiyatini ochib berishga, asosiy bosqichlarini, muvaffaqiyat omillarini va to'siqlarni aniqlashga qaratildi. Aralash usullar tadqiqoti orqali olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish ko'p qirrali jarayon bo'lib, tashkilotdan strategik rejalashtirish, resurslarni samarali boshqarish va o'zgarishlarga moslashuvchanlikni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari yuqori rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi, innovatsion madaniyat, resurslar mavjudligi, hamkorlik va mijozlarga yo'naltirilganlik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, resurslarning cheklanganligi, o'zgarishlarga qarshilik, riskni baholash va bozor noaniqligi innovatsiya jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy to'siqlar sifatida aniqlandi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, loyihalarga innovatsiyalarni joriy etish jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni berish mumkin. Tashkilot rahbariyati innovatsiyalarni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilashi va ularni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli resurslar ajratishi zarur. Innovatsiya tashkilotning umumiy maqsadlariga mos kelishi va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Tashkilotda innovatsiyalarga ochiq va rag'batlantiruvchi madaniyatni yaratish kerak. Bu xodimlarni yangi g'oyalarni taklif qilishga, risklarni qabul qilishga va o'z tajribalaridan saboq olishga undaydi. Mijozlarning ehtiyojlarini tushunish va ularga mos innovatsiyalarni yaratish uchun doimiy

ravishda mijozlar bilan aloqada bo'lish zarur. Mijozlar fikrini inobatga olgan holda mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish muhim. Innovatsion loyihalarning risk darajasini baholash va ularni kamaytirish uchun tegishli choralar ko'rish zarur. Riskni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va loyihaning har bir bosqichida risklarni kuzatib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) VA BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI**, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/16, 33-37.
2. G Shamsiddinov, „iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Durдона Turayeva." **GLOBAL IQLIM O „ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHNING ZAMONAVIY, INNOVATSION USULLARI.**" Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 103-106.
3. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **KLIENT-SERVER ARXITEKTURALARI**, Наука и инновация, 2025/3/25, 113-119.
4. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **VIRTUAL BORLIQ VA UNING ASOSIY TUSHINCHALARI**, Наука и инновация, 2025/3/24, 52-58.
5. G'iyosjon Shamsiddinov, Barchin Ro'ziqulova, Laziza Inatillayeva, **BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI**, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/10/21, 39-41.
6. Л Турсунова, С Жураев, **ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024, 35-37.
7. DO Israilovich, TL Komilovna, **Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering**, European journal of innovation in nonformal education, 2022, 369-373.
8. Ro'Ziqulova Marjona Jonuzoq Qizi, Tursunova Luiza Komilovna, **INFORMATIKA FANINI O 'QITISHDA SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**, Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025, 63-66.
9. Луиза Комиловна Турсунова, Гиесжон Шамсиддинов, **Образ педагога в информационном мире, "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi"** mavzusidagi xalqaro ilmiy Anjuman, 2024/2/23, 421-426.
10. Зебинисо Абдулхакимовна Абдувалиева, Турсунова Луиза Комиловна, **Математический аппарат методов принятия решения документооборота в ВУЗах**, 2022, 286-289.
11. Alijon Muhammadiyev, Shukurullo Aliqulov, **PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION**, Наука и технология в современном мире, 2024, 90-92.
12. Sh Aliqulov, M. Yaxiyaxonova. **Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim ...**, 2024.
13. ALIQULOV SHUKURULLO FAYZULLO, **TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH**, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 45 | ISSUE – 2 January – 2024, 2024/1/2, 61-65.

14. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Iqtidorli talabalarni fan, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilishning zamonaviy usullari, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 54-57.
15. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Hozirgi globallashtirish jarayonida intellektual yoshlarning ijtimoiy rivojlanish davridagi roli, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 40-43.
16. Mavlonov Sh Sh, FB Jurayeva, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, Экономика и социум, 2024, 234-238.
17. Feruza Jo'rayeva, Sarvinoz Xurramova, MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI TAHLILI, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/9, 8-12.
18. Feruza Jo'rayeva, TA'LIM JARAYONIDA AQL XARITALARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI, Молодые ученые, 2024/4/8, 159-166.
19. Feruza Jo'rayeva, Gulhayo Hamdamova, MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI AHAMIYATI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/3/31, 31-35.
20. Tuxtanazarova N. A Davletov A. J. , Mavlanberdiyev S. F., Norqulova Z. N., Jurayeva F. B., Jurayeva D. Sh, STUDY RATIO OF MOISTURE AND BIOME FOR EXTREME SITUATION, ВЫСШАЯ ШКОЛА• №23 / 2021, 2021/12/23, 34-36.
21. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "CHET ELDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMI." Молодые ученые 3.8 (2025): 160-165.
22. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI." Наука и инновация 3.8 (2025): 146-151.
23. Salimova, Marjona, and Nozima Nuriddinova. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING INNOVATSION USULLARI." Наука и инновация 2.38 (2024): 161-164.
24. Nuriddinova, Sevinch, and Nozima Nuriddinova. "Increasing the effectiveness of learning biology lessons by means of interactive games and interactive methods." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.7 (2024): 288-290.